XALQ DEPUTATLARI QO‘SHKO‘PIR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 5-mart VII-24-26-12-172-K/26 Qo‘shko‘pir tumani

2026-yilda Qo‘shko‘pir tumani bo‘yicha “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarining cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori ijrosini ta’minlash va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-va 24-moddalariga asosan muvofiq xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuniga 9-ilova bilan 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari tasdiqlanganligi, shunigdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-bandi v) kichik bandida xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi

hamda mazkur yigʻimlardan tushgan tushumlar toʻliq miqdorda tuman(shahar)lar budjetlariga yoʻnaltirilishi belgilab qo`yilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2.Yuqoridagilardan kelib chiqib 2026-yil uchun Qoʻshkoʻpir tumani hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yigʻimlarning miqdorlariga kiritiladigan o`zgarishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3**.** Qoʻshkoʻpir tumani hokimining birinchi oʻrinbosari S.Pirnapasov tuman soliq inspeksiyasi (Oʻ.Ashirov) bilan birgalikda mazkur qaror oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

4.Tuman hokimligining axborot xizmati (M.Matyaqubov) “Hayot koʻzgusi” gazetasi (M.Tillayeva) bilan hamkorlikda mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy vebsaytiga joylashtirsin hamda “Hayot koʻzgusi” gazetasida rasmiy e’lon qilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi N.Boymuratova zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **TANGRIBERGANOV MAXMUD OLLAQULIYEVICH**

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tumani
Kengashining
2026-yil 5-martdagi
VII-24-26-12-172-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Qo‘shko‘pir tumani hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

№	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka ***(O‘RQ-1105 25.12.2025 y. 9-ilova)***	**Qo‘llanilgan koeffitsiyent** ***(1,2 gacha)***	**2026-yil uchun yig‘im stavkasi**
1	Alkagol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	1,2	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkagol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	1,2	180 000